

# Botanika bog'ida sodir bo'lgan yong'inda bog'ning kolleksiya fondiga zarar yetmagan

Bugun, 16 may kuni soat 11:55 da Toshkent Botanika bog'ining orqa tomonidagi chiqindixonada, qurigan xas-xashak va butalgan shox-shabbalarda yong'in sodir bo'lganligi haqida xabar tarqalgandi.

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi yong'in-qutqaruв guruhi tomonidan yong'in o'z vaqtida o'rabi olinib, bog' hududiga o'tishining oldi olingan.



Hodisa natijasida jabrlanganlar yo'q. Yong'in Botanika bog'ining kolleksiya fondiga zarar yetkazmagan.

***Toshkent Botanika bog'i ma'muriyati.***